

IMOM AL-BUXORIY MEROSIDA “AL-JOME’AS- SAHIH” ASARINING ILMIY VA DIDAKTIK AHAMIYATI

Abdulhamidova Mahbubaxon Nizomjon qizi

Farg’ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti. Filologiya va tillarni o’qitish

o’zbek tili yo’nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025554>

Annotatsiya: Ushbu matnda Imom Buxoriyning eng mashhur asari — Al-Jome’as Sahih (ya’ni Sahihul Buxoriy) haqida batafsil ma’lumot beriladi. Asarning yaratilish jarayoni, uning hadis ilmidagi o’rni va ishonchlilik darajasi yoritilgan. Shuningdek, sahih hadis tushunchasi, uning asosiy shartlari — sanadning uzluksizligi, roviylarning adolatliligi va ishonchliligi izohlanadi. Matnda hadislar asosida axloqiy va ijtimoiy mavzular, jumladan, ota-onaga hurmat, ularning roziligini olish, hamda qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash (silai rahm)ning ahamiyati tushuntiriladi. Ushbu asar Qur’ondan keyingi eng ishonchli manbalardan biri sifatida baholanadi.

Kalit so’zlar: Imom Buxoriy, Al-Jome’ as-Sahih, hadis ilmi, sahih hadis, sanad, roviy, odob-axloq, silai rahm, hadis to’plami.

Аннотация: В данном тексте подробно рассматривается самый известный труд Имама Бухари — Аль-Джами ас-Сахих (также известный как Сахих аль-Бухари). Освещаются процесс создания данного труда, его значение в науке хадисов и степень достоверности. Также объясняется понятие достоверного (сахих) хадиса и его основные условия — непрерывность цепочки передатчиков (иснад), справедливость и надежность передатчиков (рави). В тезисе на основе хадисов раскрываются нравственные и социальные темы, такие как уважение к родителям, получение их удовольствия а также важность под держания родственных связей (силат ар-рахим). Этот труд считается одним из самых достоверных источников после Корана.

Ключевые слова: Имам Бухари, Аль-Джами ас-Сахих, наука хадисов, достоверный хадис, иснад, рави, нравственность, силат аррахим, сборник хадисов.

Annotation: This text provides detailed information about the most famous work of Imam Bukhari — Al-Jami’ as-Sahih (also known as Sahih al-Bukhari). It highlights the process of the book’s compilation, its role in the science of hadith, and its level of authenticity. The concept of authentic (sahih) hadith is also explained, along with its main conditions — the continuity of the chain of transmission (sanad), and the integrity and reliability of narrators (rawi). The text also discusses moral and social themes found in the work, such as respect for parents, seeking their approval, and the importance of maintaining kinship ties (silat al-rahim), based on hadiths. This collection is regarded as one of the most authentic sources after the Qur’an.

Keywords: Imam Bukhari, Al-Jami’ as-Sahih, science of hadith, authentic hadith, sanad, rawi, ethics, silat al-rahim, hadith collection.

Muhaddislar sultoni bo’lgan Imom Buxoriy hayoti va ma’naviy merosini keng tadqiq etish yuzasidan nafaqat yurtimizda, balki butun musulmonlar olamida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imom Buxoriyning hayoti va faoliyati, u meros qoldirgan shoh asarlar davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur

o'rganilmoqda. Islom dinining asl mazmun-mohiyatini teran anglashda ijtimoiy axloqiy masalalarga targ'ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borilishida Imom Buxoriy merosining ahamiyati katta.

Imom Buxoriyning eng muhim va mashhur asari “Al-Jome' as- sahih” asaridir. Bu asarning to'liq nomi “al-Jome' al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuril Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) va sunanihi va ayyamihi” deb nomlagan. Asar hadis ilmida va musulmonlar orasida qisqacha “al-Jome' as-sahih”, aksar hollarda esa “Sahihul Buxoriy” nomi bilan mashhur ekani ma'lum. Ulamolar bu asarni Qur'oni Karimdan keyingi eng sahih kitob deb biladilar.[1] Imom Buxoriy o'z zamonasida mavjud bo'lgan barcha hadis to'plamlarni rioyati qilgan, ularni jamlagan holda faqat sahih rivoyatlardan iborat asarni vujudga keltirdi. Imom Buxoriy: “Bu “Al-Jome' as- sahih” asarini o'n olti yilda yozganman va olti yuz ming hadisdan chiqarib olganman va ularni o'zim bilan Allohning o'rtasida hujjat qildim” – deb aytgan.[2] Shu o'rinda “Al-Jome' as- sahih” asari sahih hadislarini o'zida jam qilgan ekan, hadis sahih bo'lishi imom Buxoriyning o'z shartlari borligini ham bilishimiz kerak.

Mustalahul hadis ilmi ulamolari istilohida “Sahih hadis – sanadi boshidan oxirigacha adolatli va zobtli kishi o'ziga o'xshagan adolatli va zobtli kishidan muttasil (uzluksiz) sanad ila naql qilgan hamda illatli bo'lmagan hadisdir”. “Sanadning muttasil bo'lishi.” Hadisning Roviylaridan har biri o'zidan oldingi roviydan to'g'ridan to'g'ri olgan bo'lsin. Sanadning avvalgi roviydan boshlab oxirigisigacha xuddi shunday bo'lishi kerak. Orada biror kishi tushib qolmasligi shart. Imom Buxoriy yuqoridagi ta'rifga qo'shimcha ravishda: “Roviy o'z shayxi bilan bir marta bo'lsa ham uchrashishi sobit bo'lishi kerak”, deydi.[3] Imom Buxoriy “Al-Jome' as- Sahih” hadislar to'plamiga nafaqat e'tiqod va ibodatga oid, balki insoniyatni komillik sari eltuvchi axloqiy va ijtimoiy masalalarga doir hadislarini ham kiritgan. Mazkur hadis to'plamining ikkinchi va to'rtinchi jildlari aynan shu masalalarga bag'ishlangan. Muhaddis mazkur hadis to'plamida alohida “Odob kitobi”ni tasnif etib, unda odob-axloqqa oid hadislarini keltiradi. Agar e'tibor qilsak, Imom Buxoriy bu kitobni ota-onaga itoat qilish hamda ularning xizmatiga doim hozir turishga targ'ib qilingan va uning fazilatlarini haqidagi hadislar bilan boshlaydi:

Ota-ona zulm qilsa ham, ularga yaxshilik qilaverish haqida

4-bob. Abdulloh ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilindi. “Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh taolo undan rozi bo'lmaydi”, dedilar. Shunda bir kishi: “Agarda ota-onalar bolaga zulm qilsa, bola nima qilishi kerak?” – deb so'radi. Abdulloh: “Agar ular bolaga zulm qilsalar ham bola ularni ranjitmasligi kerak”, dedilar.[4]

Bu rivoyatning mazmuni shuki: ota-onaga yaxshilik qilish — katta savob, ularga ozor berish esa katta gunoh. Hatto ota-ona adolatsiz yoki qattiqqo'l bo'lsa ham, farzand hurmatni saqlashi, yomon gap bilan javob bermasligi, ranjitmasligi kerak. Shariatda ota-onaning g'azabini keltirish eng katta gunohlardan biri hisoblanadi. Uning darajasi ota-onaga oq bo'lgan kishining gunohi bilan tenglashtirilgan. Farzandning ota-onasiga oq bo'lish uchun ular tomonidan “oq qildim” deyilishi shart emas. O'zi to'q bo'lib, ota-onasining och o'tirishi, doimo ularning dilini og'ritadigan ishlar qilishi farzandni o'zi bilmagan holda ota onasiga oq bo'lishiga olib keladi.

Shuningdek, Imom Buxoriy mazkur kitobda silai rahm haqida rivoyat qilingan hadislarini ham keltirib, mo'min kishining hayotida silai rahm yuqori o'rinda turishini ta'kidlaydi:

28-bob. Silai rahm umrni ziyoda qilishi haqida

Anas ibn Molik (r.a.) aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): “Rizqi keng va farovon bo’lishni va hayoti uzoqqa borishni yaxshi ko’radigan kishi qarindoshlaridan o’zini uzmasin”, dedilar. Bu hadisda ko’rinadiki silai rahm inson hayotini barakali va mazmunli o’tishiga sabab bo’ladi, qarindoshlarni ziyorat qilish ularga mehr muhabbatda bo’lish eng katta yaxshiliklardan biri ekanligi ko’rinadi. Imom Buxoriy butun hayoti davomida ilmiy xolislikka, samimiylikka, masalaga to’g’ridan-to’g’ri yondashish kabi tamoyillarga qat’iy rioya qilganligi, uning yozganlarining ishonarlilik va manbasini aniq ko’rsatishi jihatidan barcha allomalarning e’tibori va hurmatin iqozongalligi sababli ham ming yil mobaynida o’z qiymatini saqlab kelmoqda. Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o’zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. U tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmis iroda, so’nmas e’tiqod timsolidir.

Xulosa qilib aytganda, Imom al-Buxoriy to’plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi, balki hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodga ezgulik va go’zallik tuyg’ularini mujassamlashtiradi, insonlarni bir – birlariga mehr-oqibatli bo’lishlariga, ota-ona va kattalarga doimo hurmatda, yetim-yesirlarga muruvvat, saxiylik, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o’zaro do’stona, tinch totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlarini ruhida tarbiyalaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. “Sharq” nashriyoti, 2011. - B.69.
2. Alloma Abdusalom Muborakfuriy. Siyrat al-imom al-Buxoriy. -1. Dor olam al favoid. -B.84
3. Imom Muhaddis Ali ibn Sulton Muhammad Haroviy al-Qori. “Sharhi sharhi nuxbatul fikar fi mustalahati ahlil asar”. “Ittihad book depot”. Deband. -B.274
4. Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar
5. Sh. Boboxonov, N. Abdumajid. Toshkent: Movarounnahr, 2006. -B.1
6. <https://bukhari.uz>
7. <https://inLibrary.uz>